

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	10
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА	19
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНАЕ	28
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH	34
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	41
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH	46
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	55
Alimova Dilafrō'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	61
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI	90
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH	94
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	99
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	104
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH	110
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	116
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	120
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	125
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	131
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	136
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	144
Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	149
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	154
Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI	159
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	171
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	177
O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
Ro‘zmetov Mansur	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIVAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIVAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	208
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	218
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ.....	224
Тожалиев Шохрух Талип ўғли	
GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	229
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna	
O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISH	234
Azlarova Aziza Axrorovna	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	241
Marufxanov Davron Hasanovich	
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI.....	249
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	256
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI.....	261
Anvar Deberdiyev	
RAQAMLI XIZMATLARNING O‘ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O‘RNI	265
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	271
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV.....	276
Tadjiev Bexzod Umidjanovich	
OTMNI MOLIYAVIY TA‘MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELLARI.....	283
Tuxliyev Bozor Karimovich	
TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	286
Abirova Nargizabonu	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	291
Ro‘ziyeva Maftuna Yusufovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	296
Sharipova Shahlo Istamovna	
METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	301
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o‘g‘li	
SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	305
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna	
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI	310
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	316
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	324
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	330
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	334
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOLEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	337
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	347
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	355
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	360
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	368
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	372
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	379
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	384
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti

Rasulov Akmal Xurshid o'g'li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
E-mail: jasurberdiyev6834@gmail.com
ORCID: 0009-0006-0111-4300

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'llari va vositalari, innovatsion faoliyatni rivojlantirish omillari, xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion tadbirkorlik va innovatsiyalardan foydalanishning iqtisodiy mazmuni hamda mohiyati, innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning turli mexanizmlari va ularni amalga oshirish usullari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyat, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion biznes, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ixtirochilar, konstruktorglar, texnologlar.

Аннотация. В данной статье исследованы пути и инструменты государственной поддержки инновационной деятельности в сфере услуг, факторы развития инновационной деятельности, экономическое содержание и сущность инновационного предпринимательства и использования инноваций в сфере услуг, а также различные механизмы и методы государственного регулирования и поддержки инновационного предпринимательства.

Ключевые слова: инновационная деятельность в сфере услуг, инновационное предпринимательство, инновационный бизнес, стимулирование инновационной деятельности, изобретатели, конструкторы, технологи.

Abstract. This article examines the ways and instruments of state support for innovative activity in the service sector, the factors influencing the development of innovative activity, the economic essence and significance of innovative entrepreneurship and the use of innovations in the service sector, as well as various mechanisms and methods of state regulation and support for innovative entrepreneurship.

Keywords: innovative activity in the service sector, innovative entrepreneurship, innovative business, stimulation of innovative activity, inventors, designers, technologists.

KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotning rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiy tizimida xizmat ko'rsatish sohasining o'zni ortib bormoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar esa, ayniqsa, boshqaruv tizimlarining takomillashtirilishi mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruvning an'anaviy yondashuvlari ko'pincha zamon talablariga javob bermaydi.

Bu sohadagi boshqaruv mexanizmlari ko'p hollarda yangiliklar va texnologik o'zgarishlarni inobatga olmaydi, bu esa tashkilotlarning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)da innovatsiya va intellektual hissaning yuqori ulushiga ega bo'lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, xizmatlar bozorida raqobatbardosh xizmatlarga hamda qulay innovatsion-investitsion muhitga ega mamlakatga aylantirish bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda respublikamiz iqtisodiyotini to'liq innovatsion modelga



o'tkazmasdan turib erishish mumkin emas. Bu esa mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashdir. Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirishning har bir jihati mamlakatning iqtisodiy barqarorligini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqsadga erishish uchun xizmat ko'rsatish tashkilotlarida zamonaviy boshqaruv metodlarini joriy etish, xodimlar salohiyatini oshirish va yangi texnologiyalardan foydalanish zarur.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning eng muhim yo'llaridan biri raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdir. Hozirgi kunda dunyo miqyosida raqamli transformatsiya xizmat ko'rsatish sohasini yangilashda asosiy omilga aylanmoqda.

Xizmat ko'rsatish tashkilotlari, masalan, banklar, do'konlar, restoranlar va boshqa xizmatlar sohasidagi tashkilotlar o'z mijozlari bilan muloqot qilishda va xizmatlarni taqdim etishda zamonaviy texnologiyalarni faol qo'llamoqda. Bu esa mijozlar bilan yanada yaqin aloqalar o'rnatishga, xizmatlar sifatini yaxshilashga va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruvning takomillashuvi bilan birga inson resurslarini boshqarish metodlarini ham innovatsiyalash zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'rganilayotgan muammoga bag'ishlangan ilmiy ishlarda "innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash" kategoriyasiga turli xil ta'riflar berilgan. G. A. Yarin fikricha, "innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash innovatsion tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun innovatsion ishbilarmonlik muhiti faoliyati uchun huquqiy-siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, raqobatbardosh va boshqa shart-sharoitlarni davlat organlari tomonidan ta'minlash mexanizmidir".

Iqtisodchi olim I. V. Vaxramovning fikricha, davlatning innovatsion-investitsion siyosati samaradorligini oshirishdan kutilayotgan natijalar, uning innovatsiyalarni joriy qilishdagi obyektiv holatlari, ya'ni risk darajasining mavjudligi, yangi texnologiyalarni yaratish, xizmat ko'rsatish jarayonlari vaqtini sezilarli darajada qisqartirish, ilmiy muhit va innovatsion infratuzilma rivojlanishining o'zaro muvofiqligi, ilmiy-tadqiqot ishlarini osonlashtirish uchun tegishli infratuzilmani shakllantirish, ushbu faoliyat uchun kapital sig'imi yuqori tizimlarni shakllantirish zarurati, iste'mol bozoridagi raqobat muhiti, kichik innovatsion korxonalar uchun davlat kafolatlarini taqdim etish hamda innovatsiyalar va mutaxassis kadrlariga qo'yiladigan yuqori talablar bilan belgilanadi. Mazkur maqsadlarga erishish tarkibiy va infratuzilmaviy o'zgarishlar umumiy dasturini amalga oshirish bilan bog'liq.

Yudov S. D. esa innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash innovatsion tadbirkorlikni faollashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu bilan shug'ullanuvchilarning aholi qatlamlari orasida turmush farovonligini oshirish uchun qulay huquqiy, soliq va ma'muriy muhitni yaratishdan iborat ekanligini ta'kidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ilmiy-amaliy jihatlari dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan eng asosiysi institutsional muhit hisoblanadi. Ushbu jarayonda davlatning roli alohida ahamiyatga ega.


Shunga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bir qator ustuvor yo'nalishlar bilan belgilanadi. Bizningcha, ular quyidagilar:

- xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirish bo'yicha tegishli qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish zaruriyati;
- sohada investitsion resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari;
- innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari;
- xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yanada rivojlantirish;
- innovatsion tadbirkorlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zaruriyati;

– “innovatsion mahsulot (xizmat)lar bozori”ni rivojlantirish va kengaytirish yo‘nalishlari.

Davlat innovatsion siyosatining ahamiyati innovatsion jarayonlarning obyektiv xususiyatlari, ya‘ni yuqori darajadagi tavakkalchilik, ilmiy muhit va innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasiga bog‘liqlik, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish uchun katta kapital sig‘imi, halol raqobat va tadbirkorlikni keng rivojlantirish imkoniyatlari, innovatsiyalar hamda kadrlarning ilmiy-texnik malakasiga qo‘yiladigan yuqori talablar kabi omillar bilan belgilanadi.

Innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash innovatsion tadbirkorlikni faollashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu bilan shug‘ullanuvchilarning aholi qatlamlari orasida turmush farovonligini oshirish uchun qulay huquqiy, soliq va ma‘muriy muhitni yaratishdan iborat. Davlatning innovatsion faoliyatni rivojlantirishga munosabati uni rivojlantirishning yaxlit siyosati bilan ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llabquvvatlashning asosiy yo‘nalishlari.

Innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan davlat innovatsion siyosati belgilangan maqsad va vazifalar, tamoyillarni belgilash, turli mexanizmlar va ixtisoslashtirilgan davlat institutlarini yaratish asosida ishlab chiqilgan innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarining mutanosib tizimidir.

Mahsulot va texnologiyalarning tubdan yangi turlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishda, shuningdek, shu asosda mahalliy tovarlarni sotish bozorlarini kengaytirishda namoyon bo‘luvchi xo‘jalik subyektlarining faol innovatsion siyosati yalpi ichki mahsulot hajmi o‘shirishni ta‘minlash, ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarida zamonaviy texnik-texnologik tuzilmalarni shakllantirish hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz iqtisodiyotini xomashyo yo‘nalishidan yuqori texnologiyalarga yo‘naltirilgan innovatsiyalar sohasiga o‘tkazish muhim vazifalardan biridir. Bu ilm-fan, ta‘lim va yuqori texnologiyalar




sohasidagi qiyosiy ustunliklarni oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlik salohiyatini keskin oshirish hamda shu asosda iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlashning yangi manbalaridan foydalanish imkonini beradi.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-son Farmoniga muvofiq "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida keltirilgan. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish inson intellekti va ijodiy salohiyatini iqtisodiy o'sish va milliy raqobatbardoshlikning yetakchi omiliga aylantirish demakdir.

Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining strategik maqsadi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning innovatsion va yuqori texnologik formatiga o'tish, mamlakatimizning raqobatdosh ustunliklarini ishga solish va to'g'ri safarbar etish, innovatsion mahsulotlar hajmini kengaytirish, jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan yo'nalishlarga investitsiyalarni yo'naltirish, aholi turmush darajasini bir necha bor yaxshilash, ijtimoiy sohadagi dolzarb masalalarning innovatsion yondashuvga hamda ilmiy tadqiqotlar va erishilgan natijalarga asoslangan ilmiy yechimini topish, xalqaro miqyosda ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlar ijrosini ta'minlashdan iborat.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun xizmat ko'rsatish va servis sohasida innovatsion tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Biz O'zbekistonning turli hududlarining amaliy tajribasini tahlil qilish asosida hududiy xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqdik (2-rasm).



2-rasm. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash



Fikrimizcha, ushbu mexanizmning o'ziga xos jihati shundaki, yetakchi o'rin viloyatdagi xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarga berilgan. Mexanizm tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda faol ishtirok etishga yo'naltirilgan bo'lib, uning manfaatlarini inobatga oladi va hududdagi korxonalar tomonidan innovatsiyalarga bo'lgan talabni rivojlantirishga qaratilgan. Keng ma'noda mazkur mexanizm tashabbuslar va uni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni, ya'ni ilm-fan va biznes hamkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish yo'nalishlarini belgilaydi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyat natijalari tufayli hududni yangi turdagi xizmatlar bilan ta'minlash;
- hududning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarining innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalari asosida ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- hududning xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion tadbirkorlik faoliyati subyektlarining manfaatlarini huquqiy tartibga solish va himoya qilish;
- innovatsion sohada raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, hududdagi innovatsion va tadbirkorlik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash;
- hududda zamonaviy innovatsion infratuzilmani shakllantirish;
- davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish orqali hududiy innovatsion tizimning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash.

Respublikamiz hududlarida xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyat rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolardan biri innovatsiyalarga talab va taklif o'rtasidagi nomuvofiqlikning mavjudligi, shuningdek, tadbirkorlar, olimlar va aholining innovatsion madaniyati pastligi, o'z ixtirolaridan foydalanish va ularni targ'ib qila olmasligi hisoblanadi.

Shunga ko'ra, milliy va hududiy innovatsion siyosatning zarur elementi quyidagi asosiy yo'nalishlarda innovatsion madaniyatni oshirish chora-tadbirlariga qaratilishi lozim:

- xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar va tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasalari uchun innovatsion sohada ishlash uchun kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
- korxonalar va aholiga intellektual mulk obyektlarini ro'yxatga olish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- innovatsion tovar va xizmatlarni realizatsiya qilishning marketing mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- innovatsion tadbirkorlar va aholini ilg'or mahalliy va xorijiy innovatsiyalar to'g'risida axborot bilan ta'minlashni amalga oshirish;
- hududda innovatsion infratuzilma elementlarini shakllantirish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Hozirgi kunda xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi restrukturizatsiya qilish bosqichidadir. Shunga ko'ra, innovatsion loyihalarni boshqarish ularni amalga oshirish bo'yicha qarorlarni qabul qilishni metodik ta'minlashdagi kamchiliklardan biri bo'lib hisoblanadi. Mazkur holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, zamonaviy xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish quyidagi choralarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- zamonaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar faoliyatining muhim yo'nalishlari doirasida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishga konsentratsiyalash;
- sohada texnologik yo'l xaritalarini yaratish asosida innovatsion faoliyatga kichik va xususiy xizmat ko'rsatish korxonalarini jalb qilish;
- fan sig'imi yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion faoliyat natijalarini xarid qilish va sotish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatning moliyaviy samaradorligini oshirish usullari va vositalarini joriy etish;
- xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish doirasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish vositalarini qo'llash;
- innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar yoki korxonalar tomonidan aniqlanadigan mezonlardan kelib chiqib, foydali innovatsion loyihalarga resurslarni yo'naltirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF6097-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5073447>
2. Ярин Г. А. Экономика предприятия (в малом и среднем бизнесе): учеб. пособие. 2-е изд., перераб. и доп. – Екатеринбург: УрГЭУ, 2002. – 70-б.
3. Вахрамов И. В. К вопросу о методах стимулирования инноваций в РФ // Инновации. – 2007. – № 5.
4. Юдов С. Д. Совершенствование механизмов государственной поддержки малого предпринимательства в национальной экономике: дис. ... канд. экон. наук. – М., 2004.
5. Аоки М. Фирма в японской экономике. Информация, стимулирование и заключение сделок в японской экономике / пер. с англ. – СПб., 1995. – С. 314–315.
6. Балабанов И. Т. Инновационный менеджмент. – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.
7. Ernazarov O. E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonolari samaradorligini oshirish: dis. ... iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Toshkent: TDTU, 2021. – 28–29-b.
8. Djalilov F. A. Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari: dis. ... iqt. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). – Samarqand: SamISI, 2023. – 109–130-b.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100